O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SARIOSIYO TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Sariosiyo tumani, A.Qahhor ko‘chasi 1-uy, 191001, tel.: 76-48-7-64-62, faks: 76-48-7-66-66, sariosiyo.t@exat.uz

2024 - yil 1 - aprel 88-8-116-Q/24 Sariosiyo tuman hokimligi

Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2024-yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida

QAROR QILAMAN

1. 2024-yil davomida texnik ko‘rikni uyushqoqlik bilan, sifatli o‘tkazish maqsadida, tuman komissiyasi tarkibi **1-ilovaga** va tumandagi yuridik shaxslarning transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali **2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin**.

2. Tuman komissiyasi tumandagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan va belgilangan tartibda davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishini ta’minlasin.

3. Tumandagi avtobuslar, mikroavtobuslar, avtomobillar, mototsikllar va tirkamalarni (keyingi o‘rinda Transport vositalari deb yuritiladi) davlat texnik ko‘rigidan o‘tkazish tuman ichki ishlar bo‘limining yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (Q.Nuraliyev) zimmasiga yuklatilsin.

4. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi belgilab qo‘yilsin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar, mikroavtobuslar va o‘rindiq joylari soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ulardagi tirkamalar – bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga besh yildan ko‘p bo‘lmagan (ishlab chiqarilgan yili ham jumlaga kiradi) transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) – ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilgan yilini hisobga olgan holda ishlab chiqarilganligiga besh yildan ortiq bo‘lgan transport vositalari, shuningdek ishlab chiqarilgan yili aniqlanmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) – bir yilda bir marta;

g) tirkamalar ko‘rikka transport vositasi – shatakchi transport vositalari uchun belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

5. Transport vositalari DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab, ulardan foydalanishning birinchi yili mobaynida transport vositalari texnik ko‘rikdan o‘tkazilmasligi belgilab qo‘yilsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari M.Ochildiyev, tuman IIB YHXB Q.Nuraliyev va tuman Mudofaa ishlari bo‘limi U.Qurbonov, mazkur qarorning 5-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

- birinchi marta – 1-martdan 30-iyungacha;

- ikkinchi marta – 1-sentabrdan 31-oktabrgacha;

Yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

- 1-martdan 30-iyungacha;

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

- 1-yanvardan 31-avgustgacha o‘tkazilsin.

Davlat texnik ko‘rigini sifatli va belgilangan muddatlarda o‘tkazish uchun muhandis xodimlar va mutaxassislar bilan birgalikda haydovchi nomzodlarni tayyorlovchi o‘quv tashkilotlari va tuman Mudofaa bo‘limining xodimlari ishtirok etishini ta’minlasinlar.

Joylarda o‘tkazilgan texnik ko‘rik natijalari bo‘yicha har oy yakuni bilan yuqori turuvchi idora va tashkilotlarga yozma ravishda ma’lumotnomalar kiritilsin hamda tuman hokimligi huzuridagi harakat xavfsizligi komissiyasi yig‘ilishlarida har chorakda muhokama qilib borilishini ta’minlasinlar.

7. Texnik ko‘rikdan o‘tkazishda diagnostika stansiyalari, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalarining sozligi hamda harakatlanuvchi ta’mirlash va tuzatish ustaxonalarining belgilangan tartibda jihozlanganligiga alohida e’tibor qaratilsin.

8. Tuman IIB YHXB (Q.Nuraliyev)ga:

yuridik shaxslarning transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvalini tumandagi barcha korxona, muassasa va tashkilotlarga yetkazish hamda o‘z vaqtida bajarilishi ta’minlash;

xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari (TXS) va tadbirkorlik subyektlari tomonidan

transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash belgilangan talablar va qat’iy belgilangan narxlar asosida amalga oshirilishini qat’iy nazoratga olish yuklatilsin.

9. Tumandagi har bir tashkilot, korxona va muassasa rahbarlari hamda shaxsiy avtomashina egalariga avtotransport vositalarining doimiy ravishda texnik jihatdan sozligini ta’minlash va o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

11. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Ochildiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.H.Donayev**

Sariosiyo tuman hokimining
2024-yil 1-apreldagi
88-8-116-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2024-yilda texnik ko‘rikni uyushqoqlik bilan sifatli o‘tkazish bo‘yicha tuman hokimligi qoshida tuzilgan komissiya a’zolari

Q.Nuraliyev -	tuman IIB YHHB boshlig‘i, ***komissiya raisi***
KOMISSIYA A’ZOLARI	
U.Qurbonov	tuman Mudofaa ishlari bo‘lim boshlig‘i
A.Qurbonov	tuman Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti boshlig‘i
S.Sheraliyev	O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Sariosiyo tuman bo‘limi boshlig‘i
X.Usmonov	tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i
A.Saidnazarov	tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
G.Samiyeva	tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i
B.Sharipov	“Xurshidbek Iftixor Omad” MChJ rahbari
I.Samatov	“Hisor” ixtisoslashtirilgan davlat o‘rmon xo‘jaligi qo‘riqchisi

Sariosiyo tuman hokimining
2024-yil 1-apreldagi
88-8-116-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Sariosiyo tumanida yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali

т/r	Tashkilot nomi	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Sanasi va vaqti	Transport soni	Yuk.avto	Jumladan, maxsus	Yengil	Jumladan, maxsus	Avtobus	Mikro avtobus
1	“Trans servis kompleks” MChJ	avtosaroy	12.03.2024y	11	7	1	3	-	-	-
2	“Jasur agro” xususiy korxona	avtosaroy	12.03.2024y	13	7	3	3	-	-	
3	“Sarvar biznes kompleks” MChJ	avtosaroy	13.03.2024y	2	2			-	-	-
4	“TS OLOT INVEST” MChJ	avtosaroy	14.03.2024 y	10	8	-	1	-	1	-
5	“Xufar Zokirshox” fermer xo‘jaligi	avtosaroy	15.03.2024 y	14	13		1	-	-	-
6	“Shaxzod Davr” xususiy korxonasi	avtosaroy	13.03.2024 y	2	-	-	2	-	-	-
7	“Xonjiza savdo servis” MChJ	avtosaroy	15.03.2024 y	1	-	-	1	-		-
8	“Uzun” davlat o‘rmon xo‘jaligi	avtosaroy	28.03.2024 y	10	2	2	3	1	1	1
9	“Sarbon” AJ	avtosaroy	18.03.2024 y	4	2	2		-	-	-
10	“Sariosiyo Agroservis 2017 MTP” MChJ	avtosaroy	18.03.2024 y	2	1		1	-	-	-
11	“Sariosiyo yuk tashish” xususiy avto korxonasi	avtosaroy	19.03.2024 y	12	-	-	12	-	-	-
12	“Texo-drobilka” MChJ	avtosaroy	20.03.2024 y	8	7	-	1	-	-	-
13	Veterinariya vavet labaratoriya	avtosaroy	20.03.2024 y	2	-	-	1	1	-	-
14	Qishloq xo‘jalik kasb-xunar koleji	avtosaroy	20.03.2024 y	2	1	-	1	-	-	-
15	“Shaxstrans -1906” MChJ	avtosaroy	22.03.2024 y	7	-	-	5	-	2	-
16	Sariosiyo pochta	avtosaroy	23.03.2024 y	2	-		2	-	-	-
17	Qishloq xo‘jalik kimyo	avtosaroy	23.03.2024 y	1		-	1	-	-	-
18	Elektr tarmog‘i	avtosaroy	25.03.2024 y	3		1	2	-	-	-
19	San epidstansiya	avtosaroy	25.03.2024 y	3		1		2	-	-
20	5-Qishloq qurilish kombinati	avtosaroy	26.03.2024 y	13	8	1	4	-	-	-
21	Sariosiyo AYB	avtosaroy	27.03.2024 y	3	2		1	-	-	-

22	SHSZ-1	avtosaroy	27.03.2024 y	**2**	**2**	**1**	-	-	-	-
23	Surxon Sariosiyo Sifat MChJ	avtosaroy	15.03.2024 y	**7**	**4**	-	**3**	-	-	-
24	Santexgazmontaj	avtosaroy	16 03.2024 y	**1**	-	-	**1**	-	-	-
25	Maxsus montaj ventilyasiya MChJ	avtosaroy	16.03.2024y	**3**	-	-	**3**			
26	Kompleks invest MChJ	avtosaroy	16.03.2024 y	**4**	**3**		**1**	-	-	-
27	“Hisor” ixtisoslashtirilgan davlat o‘rmon xo‘jaligi	avtosaroy	30.03.2024 y	**3**	**1**		**2**	-	-	-
28	Temir biton zavodi	avtosaroy	30.03.2024 y	**3**	**2**	-	**1**	-	-	-
29	Sariosiyo gaz korxonasi	avtosaroy	30.03.2024 y	**6**	**5**	-	**1**	-	-	-
30	Markaziy shifoxona	avtosaroy	01.04.2024 y	**16**	-	-		**16**	-	-
31	“SP OO Saxovat ”OAJ	avtosaroy	02.04.2024 y	**5**	**2**	-	**3**	-	-	-
32	Qudaratillo shaxsiy taminoti	avtosaroy	03.04.2024 y	**3**	**3**	-	-	-	-	-
33	Kamronbek Karvon Servis MChJ	avtosaroy	04.04.2024 y	**33**	-	-	**33**	-	-	-
34	Sanjarbek Karvon Servis MChJ	avtosaroy	05.04.2024 y	**27**	-	-	**27**		-	-
35	Narkologiya	avtosaroy	06.04.2024 y	**1**	-	-	-	**1**	-	-
36	Sharg‘un shaxta	avtosaroy	06.04.2024 y	**17**	**9**	**7**		-	**1**	-
37	VGSCH	avtosaroy	08.04.2024 y	**8**	**5**	-	-	-	**3**	-
38	Tulqin Omad MChJ	avtosaroy	09.04.2024 y	**5**	**2**	-	-	-	**3**	-
39	Sharg‘un Gorkomxoz	avtosaroy	09.04.2024 y	**5**	**3**	**2**	-	-	-	-
40	Ravon yul Trans Servis MChJ	avtosaroy	10.04.2024 y	**52**			**52**	-	-	-
41	Vatanparvar tashkiloti	avtosaroy	11.04.2024 y	**12**	**4**	-	**8**	-	-	-
42	Feniks-omad xususiy korxonasi	avtosaroy	12.04.2024 y	**8**		-	**8**	-	-	-
43	Muborak shox xususiy firmasi	avtosaroy	12.04.2024 y	**5**	-	**4**	**1**	-	-	-
44	Sariosiyo tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	avtosaroy	13.04.2024 y	**9**	**8**	-	**1**	-	-	-
45	Sunnatullo Trans servis MChJ	avtosaroy	15.04.2024 y	**26**	-	-	**26**	-	-	-
46	Fido-S firmasi	avtosaroy	16.04.2024 y	**5**	**2**	**1**	**2**	-	-	-
47	Maxsus qurilish ta’min butlash MChJ	avtosaroy	17.04.2024 y	**9**	**5**	**1**	**3**	-		-
48	Xurshidbek Iftixor Omad MChJ	avtosaroy	18.04.2024 y	**9**	-	-	**9**	-	-	-
49	Fayz-Omad Avto Trans MChJ	avtosaroy	19.04.2024 y	**15**	-	-	**15**	-	-	-
50	Sariosiyo PTZ	avtosaroy	20.04.2024y	**2**	**1**	-	**1**	-	-	-

51	Sariosiyo Qurilish	avtosaroy	20.04.2024 y	**24**	**18**	**2**	**4**	-	-	-
52	Maks-plomaterial Story servis MChJ	avtosaroy	21.04.2024 y	**3**	**1**	-	**2**		-	-
53	To‘palang Direksiya	avtosaroy	23.04.2024 y	**9**	**1**	**1**	**6**	-	**1**	-
54	To‘palang GES	avtosaroy	24.04.2024 y	**7**	**1**	**1**	**4**	-	**1**	
55	Farxod muruvvat uyi	avtosaroy	25.04.2024 y	**4**	**1**	-	**2**	-	**1**	-
56	To‘palang SMU	avtosaroy	26-27.04.2024 y	**79**	**36**	**6**	**28**	-	**11**	-
57	Sariosiyo Maxsus trans Qurilish MChJ	avtosaroy	28.03.2024 y	**6**	**2**	**1**	**3**	-	-	-
58	Nodirbek vertang shag‘al saralash MChJ	avtosaroy	30.04.2024 y	**2**	**1**		**1**	-	-	-
59	G‘anisher Fayz xususiy korxonasi	avtosaroy	01.05.2024 y	**5**	**3**	-	**2**	-	-	-
60	Axliddin qruvchi MChJ	avtosaroy	01.05.2024 y	**3**	**2**	-	-	-	**1**	-
61	Issikliknuri xususiy korxonasi	avtosaroy	02.05.2024 y	**2**	-	-	**1**	-	**1**	-
62	Nurinixon xususiy korxonasi	avtosaroy	03.05.2024 y	**4**	**2**	-	**2**	-	-	-
63	Manzura Fayz xususiy korxonasi	avtosaroy	04.05.2024 y	**5**	**2**	**1**	**2**	-	-	-
64	Javoxir fermer xo‘jaligi	avtosaroy	05.05.2024 y	**8**	**4**	**1**	**3**	-	-	-
65	Sanoat qurilish banki	avtosaroy	07.05.2024 y	**2**	-	-	**2**	-	-	-
66	Shaxs trans-fayz MChJ	avtosaroy	08.05.2024 y	**1**	-	-		-	1	-
67	Shaxobiddin Imkon xususiy korxonasi	avtosaroy	09.05.2024 y	**5**	**2**	-	**3**	-	-	-
68	Tupalang Sifatli qum toshlari xususiy korxonasi	avtosaroy	10.05.2024 y	**3**	**1**	**1**	**1**	-		
69	Tuygun farovon MChJ	avtosaroy	10.05.2024 y	**1**	-	-	**1**	-	-	-
70	Sariosiyo Qurilish Montaj MChJ	avtosaroy	11.05.2024y	**8**	**4**	**1**	**3**	-	-	-
71	El-Javsundalasi fermer xo‘jaligi	avtosaroy	12.05.2024 y	**3**	-	-	**3**	-	-	-
72	Sharg‘un Trans o‘rgatuvchi korxonasi	avtosaroy	14.05.2024y	**2**	-	-	**2**	-	-	-
73	Sariosiyo tuman Irigatsiya bo‘limi	avtosaroy	15.05.2024 y	**2**	**1**	-	**1**	-	-	-
74	Avto xamkor qurilish trans MChJ	avtosaroy	16.05.2024 y	**6**	**3**	-	**3**	-	-	-

75	Murod Kafolat xususiy korxonasi	avtosaroy	17.05.2024 y	**3**	**2**	-	**1**	-	-	-
76	Muborak Baraka xususiy korxonasi	avtosaroy	18.05.2024 y	**4**	**2**	-	**2**	-	-	-
77	Qudratullo-Rashid trans MChJ	avtosaroy	19.05.2024 y	**4**	**4**	-	-	-	-	-
78	Sariosiyo Guliston Trans MChJ	avtosaroy	21.05.2024 y	**8**	**6**	-	**2**	-	-	-
79	Shuxratbek Temurbek Islom xususiy korxonasi	avtosaroy	22.05.2024y	**20**	-	-	**20**	-	-	-
80	Isfandiyor Baraka MChJ	avtosaroy	23.05.2024y	**4**	-	-	**4**	-	-	-
81	Sharg‘un Qurilish Invest xususiy korxonasi	avtosaroy	23.05.2024 y	**3**		-	**3**	-	-	-
82	Faridun MChJ	avtosaroy	24.05.2024 y	**4**	**4**	-	-	-	-	-
83	Mexrangiz Baraka xususiy korxonasi	avtosaroy	24.05.2024 y	**4**	**1**	-	**3**	-	-	-
84	Sariosiyo Kapital Invest ITKK	avtosaroy	25.05.2024 y	**5**	**3**	**1**		-	1	-
85	Tupalang Qurilish Montaj boshqarmasi	avtosaroy	26.05.2024 y	**8**	**5**	-	**3**	-	-	-
86	Makro Global Stroy Invest MChJ	avtosaroy	26.05.2024y	**5**	**2**	-	**2**	-	1	-
87	Rezaksoy Suv Qurilish unitar korxonasi	avtosaroy	28.05.2024 y	**86**	**45**	**5**	**29**	-	7	-
88	PGU to‘palang korxonasi	avtosaroy	29.05.2024 y	**2**	-	-	**2**	-	-	-
89	Sariosiyo tuman hokimligi	avtosaroy	29-31.05.2024 y	**2**	-	-	**2**	-	-	-
90	Tumanda boshqa barcha kichik korxonalar va femer xo‘jaliklari	avtosaroy	01-30.06.2024 y	**309**	**214**	**68**	**16**	-	**1**	**10**
Tuman bo‘yicha davlat avtotransportlar soni				**1082**	**498**	**116**	**398**	**21**	**38**	**11**